

IMLO MADANIYATI VA UNING TA'LIMYI JARAYONDAGI O'RNI

Ortiqmurodova Oydinoy

Alisher Navoiy nomidagi

ToshDO'TAU 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada imlo madaniyatining ta'limiy jarayondagi o'rni, uning o'quvchilarning yozma nutqini shakllantirishdagi ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot doirasida 6-sinf o'quvchilari ishtirokida amaliy tajriba o'tkazilib, o'quvchilarning imloviy xatolari "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari"ning yetti bo'limi asosida guruhlab tahlil qilingan. Tajriba natijalari asosida imlo madaniyatini shakllantirishda samarali yondashuvlar va amaliy tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: imlo madaniyati, yozma nutq, savodxonlik, imlo qoidalari, ta'lim, tajriba, o'quvchi xatolari.

Kirish: Til – inson tafakkuri va ongining timsoli, milliy o'zlik va jamiyatning ma'naviy boyligidir. Har bir millatning tili uning tarixiy, madaniy va ruhiy merosini mujassam etadi. Til madaniyati, ayniqsa, yozma nutqda imlo qoidalariga amal qilish madaniyati – savodli jamiyat taraqqiyotining mezonidir. Imlo me'yorlariga rioya qilish, so'zlarni to'g'ri yozish orqali fikrning aniqligi va tushunarliqligi ta'minlanadi. Shu jihatdan maktab ta'limida imlo madaniyatini shakllantirish alohida ahamiyatga ega. Nutq madaniyati – bu fikrni aniq, mantiqiy va ravon ifoda eta olish mahoratidir. Imlo madaniyati esa bu nutq madaniyatining ajralmas qismi bo'lib, so'z va gaplarni grammatik me'yorlar asosida to'g'ri yozish sanaladi. Bu faqat harflarni to'g'ri qo'llash emas, balki o'rinli, aniq va uslubga mos ifodalar bilan yozma nutqni shakllantirishni anglatadi. Yosh avlodning tafakkurini, savodxonligini yuksaltirish – bu biz uchun nafaqat ta'lim, balki millat va davlat taqdirini belgilaydigan ustuvor vazifadir. Prezident Shavkat Mirziyoyevning quyidagi so'zlari imlo va til madaniyatining xalq ma'naviy hayotidagi o'rni naqadar muhim ekanini tasdiqlaydi: "Kimda-kim o'zbek tilining bor latofatini, jozibasi va ta'sir kuchini, cheksiz imkoniyatlarini his

qilmoqchi bo'lsa, munis onalarimizning allalarini, ming yillik dostonlarimizni, o'lmas maqomlarimizni eshitsin, baxshi va hofizlarimizning sehrli qo'shiqlariga quloq tutsin."

1989-yil 21-oktabrda "Davlat tili haqida"gi qonunning qabul qilinishi va 1995-yilda "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari"ning tasdiqlanishi imlo madaniyatini huquqiy asosda mustahkamladi. Ushbu qoidalar 82 banddan iborat bo'lib, quyidagi 7 bo'limga bo'lingan:

1. Harflar imlosi (1–32-bandlar)
2. Asos va qo'shimchalar imlosi (33–37-bandlar)
3. Qo'shib yozish qoidalari (38–50-bandlar)
4. Chiziqcha bilan yozish (51–56-bandlar)
5. Ajratib yozish qoidalari (57–65-bandlar)
6. Bosh harflar imlosi (66–74-bandlar)
7. So'zlarni ko'chirish qoidalari (75–82-bandlar)

Mazkur qoidalar o'quvchilarda savodxonlikni shakllantirish, rasmiy yozishmalarni to'g'ri tashkil qilish va umumiy nutq madaniyatini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

O'quvchilarining savodxonligini bilish uchun 2025-yil aprel oyida Toshkent shahridagi 185- umumiy o'rta ta'lim maktabining 6-sinfida (jami 29 nafar o'quvchi) imlo madaniyati bo'yicha amaliy tajriba o'tkazildi. O'quvchilarga matn asosida imloviy topshiriqlar berilib, ularning xatolari yuqoridagi 7 bo'lim asosida tahlil qilindi.

Tajribada quyidagi natijalar qayd etildi:

- Harflar imlosi: 21 nafar o'quvchi (72%) xato qilgan
- Asos va qo'shimchalar imlosi: 16 nafar (55%)
- Qo'shib yozish qoidalari: 19 nafar (66%)
- Chiziqcha bilan yozish: 12 nafar (41%)
- Ajratib yozish qoidalari: 14 nafar (48%)
- Bosh harflar imlosi: 17 nafar (59%)

- Soʻzlarni koʻchirish qoidalarini: 9 nafar (31%)

Mazkur tahlil imlo qoidalarini oʻzlashtirishda ayrim boʻlimlar – xususan, qoʻshib yozish va asos-qoʻshimchalar imlosi, harflar imlosi – eng koʻp xatoga sabab boʻlayotganini koʻrsatdi

Tajriba natijalari shuni koʻrsatdiki, oʻquvchilarning imlo madaniyatiga oid bilim va koʻnikmalarida barqarorlik yetishmayapti. Ayniqsa, murakkab qoida va istisnolarni oʻzlashtirishda qiyinchiliklar mavjud. Bunga sabab sifatida quyidagilarni koʻrsatish mumkin: amaliy mashqlar yetishmasligi, yondashuvlarning umumiyligi, xatolarni individual tahlil qilmaslik.

Tavsiya etiladigan metodik tavsiyalar:

- ✓ Imlo ruknlarini differensial tahlil qilish orqali mustaqil ishlashga yoʻnaltirish: Har bir oʻquvchining aynan qaysi imlo ruknida xato qilayotganini aniqlab, individual yondashuv asosida mashqlar ishlab chiqish foydalidir.
- ✓ Diktant va yozma ishlarning muntazamligini taʼminlash: Har haftada bir marta nazorat diktanti, har ikki haftada esa mavzulashtirilgan yozma ishlar orqali oʻquvchilarning imloviy savodxonligi nazorat qilinishi zarur.
- ✓ Vizual-mantiqiy mashqlardan foydalanish: Tinish belgilarini, bosh harf bilan yoziladigan soʻzlarni yoki qoʻshma soʻzlarni toʻgʻri qoʻllash uchun rasmlar, jadvali yoki chizma topshiriqlar joriy etilishi mumkin.
- ✓ Oʻquvchilarning xatolarini tahlil qilish. Har bir yozma ish tahlil qilinib, xatolar sabablari oʻquvchilar bilan birga muhokama qilinishi foydali.
- ✓ Interfaol metodlardan foydalanish: “Xatoni top”, “Soʻzni toʻgʻri yoz”, “Tinish belgisi qayerda?” kabi oʻyinli mashqlar orqali darsni jonlantirish.
- ✓ Fonetik asosda ishlashni kuchaytirish: Ayniqsa, unlilar va undoshlar imlosi boʻyicha mashqlarda talaffuz va yozuv orasidagi farqlarni aniqlovchi topshiriqlar berish samarali boʻladi.

✓ Imloviy bilimlarni fanlararo integratsiya orqali mustahkamlash: Tarix, geografiya, biologiya kabi boshqa fanlarda uchraydigan atamalar orqali o'quvchilarni turli kontekstdagi so'zlarni to'g'ri yozishga o'rgatish mumkin.

✓ Maktab miqyosida "Imlo kuni" tashkil etish: Har oyda bir marta butun sinf yoki maktab bo'yicha o'quvchilar o'rtasida imlo bellashuvlari, musobaqalari tashkil etilishi mumkin.

Xulosa.Tahlillar shuni ko'rsatdiki, 6-sinf o'quvchilari orasida imlo madaniyati bo'yicha yetarli darajada bilimga ega bo'lmagan qatlam mavjud bo'lib, bu holat ayniqsa bosh harflar, so'zlarning to'g'ri yozilishi va unlilar imlosi yo'nalishlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Bunda nafaqat darslik materiallari, balki metodik yondashuv va topshiriqlarning turlicha va amaliy bo'lishi ham muhim omil hisoblanadi.O'tkazilgan tajriba natijalari asosida shuni ta'kidlash mumkinki, imloviy bilim va ko'nikmalarni shakllantirishda yagona nazariy yondashuv yetarli emas; balki o'quvchining xatolarini aniqlab, ularni anglatish, tushuntirish va mustahkamlash jarayonlari izchil olib borilishi kerak. Shu sababli, imloviy xatolar ustida doimiy va tizimli ishlash, fanlararo aloqalarni yo'lga qo'yish hamda interfaol metodlarni keng joriy etish orqali o'quvchilarning imloviy savodxonligini sezilarli darajada oshirish mumkin

Adabiyotlar:

1.Mirziyoyev Sh. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – 2022-yil 28-yanvar.

2. E.A.Begmatov, A.P.Madvaliyev. O'zbek tilining imlo lug'ati.-Toshkent: Akademnashr. 2013.

3. Qo'llanma. O'zbek tilining imlo va orfografiya qoidalari. – Toshkent: Xalq ta'limi vazirligi, 2017.

4.N.M.Mahmudov.O'zbek tilining imlo lug'ati.-Toshkent:Akademnashr.2013.